

JURNALISTIK ASARDA XULOSANING O'RNI, VAZIFALARI VA TURLARI

Ulug'bek Sharobiddinov

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
talabasi*

Anotatsiya: ushbu maqolada matn kompozitsiyasida xulosaning tutgan o'rni, vazifalari va turlari publitsistik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. O'zbek matbuotida e'lon qilingan materiallar misolida xulosa turlarining mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: jurnalistik asar, matn kompozitsiyasi, xulosaning mazmun-mohiyati, xulosaning vazifalari, xulosaning turlari,

Annotation: this article examines the place, functions, and types of conclusions in text composition from a publicistic perspective. The essence and content of the types of conclusions are explained through materials published in the Uzbek press.

Keywords: text composition, journalistic work, introduction, main body, conclusion, forms and types of conclusions in Uzbek press.

Matn kompozitsiyasi, ya'ni tuzilmasi jurnalistik asarning paydo bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Asarda ilgari surilayotgan fikr, g'oyaning tizimli ravishda ifodalanishiga erishish uchun muallif matn kompozitsiyasining to'g'ri shakllantirilishiga ehtiyoj sezadi. Kirish, asosiy qism va xulosa jurnalistik asarda fikr, fakt, mulohaza, munosabat va qarashlarning mantiqiy izchillikda bayon etilishiga xizmat qiladi.

Jurnalistik matn tuzilmasining tarkibiy qismlariga to'xtalib o'tishdan avval kompozitsiya o'zi nima, degan savolga javob bersak. O'zbek tilining izohli

lugʻatida kompozitsiyaga quyidagicha taʼrif berilgan: “Kompozitsiya — 1. Adabiy asar, sanʼat asari qismlarining tuzilishi, joylashishi va oʻzaro munosabati, ularning qoʻshilib ketishi, qoʻshilgan yaxlitligi”. Filologiya fanlari nomzodi, professor Nazira Toshpoʻlatova esa kompozitsiya istilohini publitsistik nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qiladi: “Kompozitsiya — muallif tomonidan ilgari surilayotgan gʻoya, fikr, voqelik, vaziyat va qarashlarni jurnalistik asarda oʻzaro bogʻlab joylashtirishdir”¹.

Filologiya fanlari doktori, professor Halim Saidov jurnalistik asarda kirish qay tartibda yozilishi kerakligi toʻgʻrisida fikr yuritadi. Shu asnoda, kirishning mohiyatini anglashga urinadi. “Kirishda shunday gap tuzilishi lozimki, uni oʻqigach, oʻquvchida yangilik matnining qolgan qismini ham oʻqishga ragʻbat uygʻonsin”². Kirishning turlari koʻp ekanligini eʼtirof etgan holda, “olti boqiy savol”dan biriga javob boʻluvchi kirish, voqeband kirish, savolli kirish, iqtibosli kirish va “mavzuga qaytib” kirishini tilga oladi. Ularni birma-bir oʻrganib chiqadi. Filologiya fanlari nomzodi, professor Nazira Toshpoʻlatova oʻzbek matbuotida chop etilgan maqolalarda kirishning uch turi koʻproq uchrashini taʼkidlaydi “Bular: toʻgʻridan toʻgʻri kirish, voqeband kirish va fikriy kirish”³.

Asosiy qismda sodir boʻlgan voqelik tafsilotlari, uni keltirib chiqargan sabablar, omillar, rivojlanish qonuniyatlari, oqibatlari faktlar vositasida qismlarga boʻlib oʻrganiladi, yoritiladi. Rus olimi V. Kostomarov matn kompozitsiyasida asosiy qismning oʻrni beqiyos ekanligini qayd etadi. “Asosiy qism gazeta matnining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri boʻlib, axborotning mazmun-mohiyatini toʻla-toʻkis anglatishga xizmat qiladi. Voqelikni batafsil yoritadi, muallifning qarashlarini oʻzida aks ettiradi”⁴. Filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori Saodat Shomaqsudova asosiy qism qisqa, loʻnda jumladan tashkil topishi, axboriylashgan boʻlishi lozim, deb hisoblaydi.

¹ Saidov H., Toshpoʻlatova N., va boshq. “Bosma OAVda janrlar va mahorat masalalari”. T.: Oʻzbekiston, 2019. — 149-b.

² Saidov H. “Yangiliklar va reportyorlik mahorati”. T.: “Taʼlim-media”, 2022. — 54-b.

³ Saidov H., Toshpoʻlatova N., va boshq. “Bosma OAVda janrlar va mahorat masalalari”. T.: Oʻzbekiston, 2019. — 147-b.

⁴ Kostomarov, 2005, pp. 203–204.

O'zbek tilining izohli lug'atida xulosa so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Xulosa — 1. Yuritilgan fikr yoki mulohazaning mantiqiy natijasi, yakun". Shuningdek, jurnalistik adabiyotlarda ham mazkur tushuncha bilan bog'liq ma'lumotlar mavjud. "Muallif fikrining izchil rivojlanishi orqali paydo bo'ladigan mantiqiy (nutqiy) yakun. O'quvchiga maqolada ko'tarilgan savolning yechimini ko'rsatish orqali hayotdagi ma'lum bir voqelik haqida aniq tasavvur beradi. Xulosada ko'tarilgan mavzu yuzasidan muallifning tugal qarashi, voqelikka yondashuvi, bahosi, umuman, xolis fikri ifoda etiladi"⁵ (**Toshpo'latova N. "Tahliliy jurnalistika". T.: O'zbekiston, 2019. — 148-b.).**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Saodat Shomaqsudova xulosaning qay tartibda yozilishiga to'xtalib o'tadi: "Xulosa yoki rezyume quyidagi tartibda yoziladi. Ideal xulosada asosiy qismdagi voqealar rivoji yakun topib, matnga mantiqiy nuqta qo'yiladi. Maqolada berilgan maqolaning haqiqat asosi yana bir bor tasdiqlanadi va kelajakda bu vaziyat qanday davom etishiga fikr bildiriladi"⁶ (**Shomaqsudova S.X. "Media tili va uslubi" (1-qism). T.: "Universitet", 2021, 18-b).**

Xulosa uchun butun boshli matnning 10% i ajratiladi. Tilning ifodaviy vositalari, jumladan, to'liqsiz gaplar, ritorik so'roq gaplar va boshqalardan foydalanish natijasida xulosaning jozibadorligi oshadi.

Xulosa kirish va asosiy qismda bayon etilgan fikrlarni umumlashtiradi. Asosiy qismda keltirib o'tilgan faktlarga nisbatan muallifning nuqtayi nafari qanday ekanligini ko'rsatadi. Subyektivlik o'z aksini topadi. Mushtariyni ko'tarilgan masalaning mohiyatini anglab yetishga, fikr yuritishga, faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishga chorlaydi. Xulosa muallifning mushtariy bilan muloqot qilishiga zamin yaratadi⁷. (**Kholod Inna. The Structural Components and Genre Differentiation of Ukrainian Newspaper Texts // "Colloquium-journal", №16(103), 2021 y.)**

Olib borgan tadqiqotlarida o'zbekistonlik nazariyotchi olimlar xulosa turlariga to'xtalib o'tmagan. Xorijiy manbalarda xulosa turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Aksar saytlarda uchta tur mavjud ekanligi qayd etilgan.

Xususan, Shimoliy Karolina universitetining Akademik yozishni rivojlantirish markazi (“The writing center”) veb-saytida xulosaning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari aks etgan:

1. umumlashtiruvchi xulosa (summarization),
2. munosabatni ifodalovchi xulosa (editorialization),
3. kengaytirilgan xulosa (externalisation)⁸.

1. umumlashtiruvchi xulosa (summarization)— kirish, asosiy qismda keltirilgan fikr, fakt va qo‘shimcha ma’lumotlarni umumlashtiriladi. Qisqa hajmda bayon etiladi. Asosiy g‘oyalar bir nuqtada jam bo‘ladi. Butun boshli materialning mazmunini, mohiyatini anglab yetishga yordam beradi.

“O‘zbekiston tashqi siyosatidagi muhim voqealardan biri bo‘lishi kutilayotgan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish, olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni Yevropa standartlariga muvofiqlashtirish hamda ko‘hna qit‘aning ilg‘or tajribalarini o‘zlashtirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu ikki tomonlama munosabatlarda ishonch va o‘zaro manfaatlarga asoslangan barqaror hamkorlikning ramzi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi”. **(Xudoyqulov M. O‘zaro ishonchga asoslangan o‘zaro munosabatlar // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2025-yil 24-oktabr)**

2. munosabatni bildiruvchi xulosa (editorialization)— muallif yoxud tahririyat nomidan ish ko‘ruvchi shaxsning fikr-mulohazalari, qarashlari aks etadi. Asosiy qismda keltirilgan faktlarga asoslangan holda, xulosa chiqariladi. Mushtariyni fikr yuritishga, voqelikni baholashga, qaror qabul qilishga chorlaydi.

“Biz bu bilan kimnidir aybdor qilib, jazolatish fikridan yiroqmiz. Maqsadimiz e’tibordan chetda qolayotgan muammoni eslatib qo‘yish, xolos. Mana, xabarni yetkazdik. Endi mas’ullardan harakat, hech bo‘lmaganda munosabat kutib qolamiz. Bu gal ham “Rejada bor”, deyish bilan ish yopilmasa kifoya”. **(Barotov A. Suvdan muammo yo‘q, muammo suvda // “Zarafshon” gazetasi, 2023-yil 25-may)**

3. kengaytirilgan xulosa (externalisation)— asosiy mavzudan

chetlashmagan holda, aloqador bo'lgan yangi masalaga o'tiladi. Oqibatda, jurnalistik asar hajman kengayadi. O'quvchi mavzuni yanada yaxshiroq tushunishga harakat qiladi. Asar yakunida muallif fikri boshqa, lekin mavzuga aloqador yo'nalishga burilib ketadi.

“Kelgusida raqamli va platformali bandlik, gender tengligi, ijtimoiy sug'urta, mehnat muhofazasi kabi yo'nalishlardagi faoliyatni yanada chuqurlashtirish islohotlarning yangi bosqichiga yo'l ochadi. Kasaba uyushmalari esa bu jarayonda ish beruvchi va xodim o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladigan muhim vositalardan biri bo'lib qolishi, shubhasiz”. **(Abduvohidova G. Mehnat huquqlari himoyasida yangi bosqich // “Jamiyat” gazetasi, 2025-yil 23-oktabr)**

teacherspayteachers.com sayti mualliflari turlarga ajratishda xulosaning ko'proq mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratishgan. 9 ta turi bor ekanligini qayd etishgan:

1. turtki beruvchi xulosa (call to action),
2. bog'lovchi xulosa (full circle),
3. taxminni ilgari suruvchi xulosa (prediction),
4. taklifni ifodalovchi xulosa (recommendation/advice),
5. badiiy vositalar ishtirok etgan xulosa (figurative language),
6. ruhlantiruvchi xulosa (inspiration),
7. voqelikning ahamiyatini ko'rsatib beruvchi xulosa (significance/importance),
8. iqtibosli yakun (quotation),
9. savolli yakun (rhetorical or critical question),

1. Turtki beruvchi xulosa (call to action)da qo'yilgan masala, muammoning hal etilishiga turtki beriladi. Mushtariy yoxud mutasaddilar ma'lum bir xatti-harakatni sodir etishga chorlanadi.

“Tilni saqlab qolish xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlarining umrboqiyiligini anglatadi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, taraqqiyot va kelajak sari yo'naltiradi. Shunday ekan, “Devonu lug'otit turk”da ulug'langan,

“Muhokamat-ul lug‘atayn”da sharaflangan ona tilimizning mahalliy va xalqaro miqyosdagi obro‘cini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida rivojlangan tillar qatoriga qo‘shish uchun har birimiz unga hurmat bilan yondashishimiz, bu ishni hayotiy shiorimizga aylantirmog‘imiz kerak”. **(Abdushukurov B. Tilimizning boyligini chetdan emas, o‘zidan qidirish kerak // “Oila va tabiat” gazetasi, 2025-yil 23-oktyabr.)**

2. Bog‘lovchi xulosa (full circle) — jurnalistik asarning kirish qismida bayon etilgan fikrlar xulosada ham ma’lum bir ma’noda takrorlanadi. Munosabat bildiriladi. Kirish va xulosa qismlari mantiqan bir-biri bilan bog‘lanadi. “Yangi Farg‘ona” gazetasining 2025-yil 25-oktabr kungi sonida “Yolg‘iz keksalar g‘amxo‘rlik og‘ushida — ularga kunduzi qarab turish xizmati yo‘lga qo‘yildi” nomli xabar chop etilgan. Kirish qismida kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati yo‘lga qo‘yilganligi to‘g‘risida axborot berilgan. “Farg‘ona shahrida faoliyat boshlagan kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati o‘z vaqtida va hayotiy ehtiyojlarga javob beruvchi tashabbus sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu markazning asosiy vazifasi — yolg‘iz keksalarni ijtimoiy inqirozdan himoya qilish, ularning hayot sifati va ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan”. Asosiy qismda tafsilotlar, faktlar, shu bilan bir qatorda, kichik tahlillar keltirilgan. Bir qarashda “Voqelikning ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi xulosa” (significance/importance)ga o‘xshab ketadi. Lekin yakunda kirish qismida bayon etilgan fikrlarga ishora bor. Uning mazmun-mohiyati yanada ochiqlangan: “Xulosa o‘rnida aytmoqchimanki, jamiyatimizdagi har bir yolg‘iz keksaning ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlash — bu faqat ijtimoiy xizmat yoki tibbiyot sohasiga xos vazifa emas, balki butun jamiyatning insoniy burchidir. Farg‘ona shahrida faoliyat boshlagan kunduzgi qatnov asosida qarab turish xizmati – rivojlangan fuqarolik jamiyati sari tashlangan muhim qadamdir”. **(Hakimov I. Yolg‘iz keksalar g‘amxo‘rlik og‘ushida — ularga kunduzi qarab turish xizmati yo‘lga qo‘yildi// “Yangi Farg‘ona” gazetasi, 2025-yil 25-oktabr)**

3. Taxminni ilgari suruvchi xulosa (prediction) — ro‘y berayotgan voqelikning kelajakda qanday tus olishi mumkinligini, rivojlanish qonuniyatlarini

o'quvchiga tushuntirish maqsadida yoziladi. Faktlar, tahlillar va kuzatishlar vositasida istiqbolni taxmin qiladi.

“Aytaylik, u o‘zi tinchitgan mojarolarni to‘xtatish uchun biror tiyin ham sarflagan emas. Hammasini iqtisodiy dastaklar vositasida uddaladi. Tramp bizning tilni bilmasa ham, o‘zbeklarning: “Kambag‘alni urma-so‘kma, ko‘ylagini yirt”, degan aqlli naqlidan xabardor ko‘rinadi. Bu gal ham u ana shu maqolni qo‘llamoqda. Biroq sulhning qaror topishiga Rossiya, Xitoy, Hindiston singari yirik davlatlarning baquvvat iqtisodiyoti to‘siq bo‘lib turibdi. Agar qattiq cheklovlar qo‘llansa, ular ham Trampning yo‘rig‘iga yurishga majbur bo‘lishadi, deb o‘ylaymiz. Buning birinchi alomati sifatida Hindistonning rus neftini xarid qilishdan to‘xtalganini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Agar Xitoy ham shunday yo‘l tutsa, Putin uchun sulh tuzishdan o‘zga chora qolmaydi”. **(Komilov X. “Nobel” armoni// “Zarafshon” gazetasi, 2025-yil 25-oktabr)**

4. Taklifni ifodalovchi xulosa (recommendation/advice) — mavzuni yakunlab, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan aniq chora-tadbirlar, tavsiyalarni taqdim etadi.

“Asosiy maqsadimiz – mamlakatimizda fermer, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi korxonalarini moddiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash orqali xavfsiz oziq-ovqat ta‘minotini ta‘minlash hamda aholi bandligini yana-da oshirishdan iboratdir”. **(Qo‘chqor R. Xavfsiz oziq-ovqat kafolati// “XXI asr” gazetasi, 2025-yil 24-iyul)**

5. Badiiy vositalar ishtirok etgan xulosa (figurative language) — jurnalistik asarga o‘xshatish, metafora, so‘z takrori, iboralar yoxud boshqa badiiy vositalar bilan yakun yasaladi.

“Oppoq qorga burkangan daraxtzorlardan “pir” etib to‘da bo‘lib uchayotgan qushlarni ko‘rib, shahidlar o‘zgacha dunyoga, rohat-farog‘atda yashaydigan diyorga yetib olishga oshiqayotganini anglayman”. **(Xoliqova Z. Derazam ortidagi hayot// “Kitob dunyosi” gazetasi, 2024-yil 14-mart)**

6. Ruhlantiruvchi xulosa (inspiration) — ruhlantirish, o‘quvchiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish maqsadida yoziladi. Ijodiy fikrlash, maqsad sari intilishga o‘rgatadi.

Yoshlarni milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Fikrlar hajman qisqa, mazmunan aniq va lo'nda ifodalanishi kerak. Badiiy vositalardan foydalanish mumkin.

“Biror ishni rejalashtirar ekanmiz, ularni amalga oshirish uchun turli xayollarga boramiz. Ba’zida xayolot kuchi bilimdan ham kuchli bo‘ladi. O‘zbekistonni asrash, avaylash va sevishtirish vujudimizni egallasa, olimlik chegarasiz darajadagi ixtirolar bilan, har kunimiz va soatimiz ijobiy natijalar bilan to‘lishi turgan gap”. **(Boboyorov M. Eliga qovushgan olimlar// “Zarafshon” gazetasi, 2025-yil 25-oktabr)**

7. Voqelikning ahamiyatini ko‘rsatib beruvchi xulosa (significance/importance) — qo‘yilgan masalaning muhim yoki muhim emasligi, dolzarbligi, insoniyat uchun qanday foyda, naf keltirishi aytib o‘tiladi.

“Brunkov, Ramsdell va Sakaguchining kashfiyoti immunologiya ilmi ga yangi nafas olib kirdi va uning markaziy tolerantlikdan tashqari boshqa murakkab nazorat mexanizmlariga ega ekanini isbotladi. Ular immun tizimi o‘z-o‘zini saqlab qolishining fundamental sirlarini ochish bilan birga, autoimmun kasalliklar, saraton va organ transplantatsiyasi kabi sohalarda yangi, samarali davolash usullarini yaratishga yo‘l ochdi. Bu kashfiyot insoniyat uchun katta foyda keltiradigan, Alfred Nobel vasiyatiga to‘liq mos keladigan ulkan ilmiy yutuqdir”. **(Badalov J. Saraton chekinadi// “Jadid” gazetasi, 2025-yil 17-oktabr.)**

8. Iqtibosli yakun — biron-bir manbadan ko‘chirib olingan matn yoxud asar parchasi jurnalistik asar yakunida keltiriladi. Natijada, xulosa mazmunan mustahkamlanadi. O‘quvchi mavzuni chuqurroq anglab yetadi. Xulosa ta’sirliroq chiqadi.

“Muhimi, bu sunamidek axborot oqimida texnologiyaning ustuvorligidan haqiqiy hayot manzarasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni unutmagan holda foydalana bilishning eng muhim sharti bo‘lib qolaveradi. Xalqimiz “Niyatingiz, tilagingiz, aytar so‘zingiz qanday shakl va mazmunda bo‘lsa, natijasi ham shunga yarasha yuzaga chiqadi”, deb bejiz aytmagan. Biz yashayotgan olamdan, makondan oqillik, ezgulik qidirgan inson, albatta, unga duch keladi. Salbiy, yomon xatti-

harakat qidirgan esa faqat shularni topadi”. (**Boyto‘ra R. Kengga keng dunyo... Siz tevarakni qanday ko‘rasiz?// “Yangi O‘zbekiston”, 2025-yil 25-oktabr**)

9. Savolli yakun — o‘quvchini fikr yuritishga chorlovchi savol o‘rtaga tashlanadi. Ritorik so‘roq gaplardan foydalaniladi. Jurnalistik asar tahliliy-tanqidiy ruhda yozilgan bo‘lsa, istehzoomuz so‘z, so‘z birikmasi, gaplarni ham qo‘llash mumkin.

“Mana shunga o‘xshash “ijod” kasriga qo‘shiqlarimiz qadrsizlanmayotganmikan?! Qo‘shiq saviyasi, ma’no-mazmunli bo‘lsagina totli bo‘ladi, ortiqcha bachkanalik odamni bezdiradi”. (**Ergashev D. Bachkanalik san’atdan bezdiradi// “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2022-yil 29-aprel**)

To‘g‘ri, jo‘yali shakllantirilgan, yozilgan xulosa nafaqat maqolani mantiqan yakunlashga, tugatishga, balki mohiyati, ta’sirchanligini oshirishga ham xizmat qiladi. Uning matn kompozitsiyasida tutgan o‘rni, vazifalari va turlarini o‘rganish, tadqiq etish media nazariyasini yanada boyitishga, yangi asoslarni yaratishga yordam beradi.